



FORECAST OF THE NETWORK AND COMPOSITION OF CITIES IN MIRZACHUL ECONOMIC REGION

Bekzod Murodovich Musayev

Assistant

Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: musayev1985@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: forecast, forecasting, city hierarchy, urban composition, large city, medium city, small city, level of urbanization, multifunctional city.

Received: 20.12.23

Accepted: 22.12.23

Published: 24.12.23

Abstract: The article predicts the further development of urban settlements in the Mirzachul economic region, encompassing changes in structure, numbers, functional types, and classifications, the state of demographic processes in cities, population size and dynamics, population structure, natural and mechanical movement and its predicts, as well as population size cities.

Have been researched upcoming changes in the urban structure of cities and geodemographic development. The result indicates that the hierarchy of cities in the economic region is developing unevenly, most cities are classified as small towns, and the existence of numerous issues, particularly in terms of socio-economic development.

MIRZACHO‘L IQTISODIY RAYONI SHAHARLARI TO‘RI VA TARKIBINING PROGNOZI

Bekzod Murodovich Musayev

Assistant

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: musayev1985@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

<p>Kalit prognozlashtirish, urbanistik tarkib, kichik shahar, funksiyali shahar.</p>	<p>so‘zlar: shaharlar yirik shahar, urbanizatsiya darajasi, ko‘p funktsiyali shahar.</p>	<p>prognoz, iyerarxiyasi, o‘rta shahar, darajasi, ko‘p funktsiyali shahar.</p>	<p>Annotatsiya: maqolada iqtisodiy rayonidagi manzilgohlarining tuzilishi, soni, funksional klassifikatsiyasidagi</p>	<p>maqolada Mirzacho‘l shahar aholi kelajakda rivojlanishi, turlari va o‘zgarishlar,</p>
---	---	---	--	--

shaharlardagi demografik jarayonlarning holati, aholi soni va dinamikasidagi o'zgarishlar, aholi tarkibi, tabiiy va mexanik harakati va uning istiqboldagi ko'rinishlarini, shaharlar aholisi prognoz qilingan. Shaharlarning urbanistik tarkibining kelajakdagi o'zgarishlari hamda geodemografik rivojlanishi masalalari o'rganilgan. Natijada iqtisodiy rayon hududida shaharlar iyerarxiyasi bir me'yorda rivojlanmasligi, eng ko'p shaharlar kichik shaharlarga to'g'ri kelishi va ularning ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yaxshi rivojlanmaganligi kabi ko'plab muammolarning mavjudligi ko'rsatib berilgan.

ПРОГНОЗ СЕТИ И СОСТАВА ГОРОДОВ МИРЗАЧУЛЬСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЙОНА

Бекзод Муродович Мусаев.

Ассистент

Узбекско-Финляндский педагогический институт

Ташкент, Узбекистан

E-mail: musaev1985@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: прогноз, прогнозирование, урбанистический состав, средний город, урбанизации, город.

иерархия город, крупный город, малый город, многофункциональный

Аннотация: В статье прогнозируется дальнейшее развитие городских населённых пунктов Мирзачульского экономического района, структура, численность, функциональные типы и изменения классификации, состояние демографических процессов в городах, изменения численности и динамики населения, структуры населения, естественное и механическое движение населения, численность городского населения и их прогнозирование.

Изучены вопросы предстоящих изменений урбанистической структуры городов и геодемографического развития. В результате было выявлено, что иерархия городов в экономическом регионе развивается неравномерно, большинство городов входит в число малых городов, а также существуют множества проблем, таких как социально-экономическое развитие этих городов.

KIRISH

Shaharlardagi demografik jarayonlarning holati, aholi soni va dinamikasidagi o'zgarishlar, aholi tarkibi, tabiiy va mexanik harakati va uning istiqboldagi ko'rinishlarini, shaharlar aholisini

prognoz qilish orqali ko'rsatib berish mumkin. Prognozlash shaharlarning kelajakda rivojlanishi, vujudga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda ekologik muammolarning oldini olish imkonini beradi. Shuningdek shaharlar uchun eng dolzarb bo'lgan ish o'rinlarini yaratish, uy-joy bilan ta'minlash, ta'lim maskanlarini hamda shifoxonalar qurish kabi ishlarni oldindan rejalashtirishda, shaharlar aholisini prognozlash muhim ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha dasturlar asosida har yili hududlarning muammolari va imkoniyatlarini chuqur o'rgangan holda taraqqiyot dasturlarini ishlab chiqish" vazifasi belgilab qo'yilgan [**Error! Reference source not found.**; 2-b.]. Mazkur taraqqiyot dasturlari asosini hududlar, xususan, shaharlar aholisining soni, yosh va jinsiy tarkibidagi o'zgarishlarni prognoz qilish ishlari tashkil etadi.

Prognozashtirish ishlari hukumat tomonidan shaharlarning rivojlantirish istiqbollarini ko'rish bilan birga ularning kelajakdagi rivojlanish dasturlarini ham ishlab chiqishga turtki beradi. Hukumat tomonidan prognozashtirish ishlarida shaharlarni prognoz qilish boshqa prognozlar ichida alohida ajralib turadi, chunki shaharlar har bir davlatning suyanchi va tayanchi hisoblanadi.

O'zbekistonda shahar aholisini prognoz qilish ishlari bilan respublikada prof. A.S.Soliyev, E.A.Axmedov, Z.Rayimjonov, X.Tursunov, ohirgi yillarda A.M.Mavlonov, P.R.Qurbonov, S.S.Zokirov, M.M.Egamberdiyeva, S.K.Tashtayeva kabi olimlar tamonidan turli shahar aholi manzilgohlari doirasida, turli variantlar, metodlar yordamida amalga oshirilgan. Xususan, bu olimlardan P.R.Qurbonov Janubiy O'zbekiston shaharlar to'ri va tarkibini prognoz qilgan bo'lsa, S.S.Zokirov O'rta muddatli istiqbol davrida O'zbekiston shaharlari aholisi sonining o'sish prognozlarini amalga oshirgan. S.K.Tashtayeva esa O'zbekiston Respublikasi shahar aglomeratsiyalari rivojlanishining prognozlari bilan shug'ullangan. Ma'lumki, shaharlar aholisi sonini prognoz qilishda juda ko'plab metodlardan foydalanish mumkin. Jumladan, P.R.Qurbonov hamda S.K.Tashtayeva ilmiy tadqiqot ishining prognozida ekstrapolyatsiya usulidan foydalangan bo'lsa, S.S.Zokirov yosh surish usulini ishlatgan.

O'zbekistonning umumiy shaharlari bo'yicha prognozlar ishlari ko'rib chiqildi. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlari aholi o'sish sur'ati biroz past ko'rsatkichda ekanligi aniqlandi. Ammo, bu ko'rsatkichlar O'zbekistonning o'rtacha shahar aholisi o'sish ko'rsatkichlariga nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlandi.

So'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida, Mirzacho'l iqtisodiy rayonida ham ko'plab ishlab chiqarish va infratuzilma obyektlari, masalan, Jizzax maxsus industrial iqtisodiy zonasining tashkil etilishi tufayli, ko'plab sanoat korxonalarini paydo bo'ldi. Mazkur sanoat zonasining tashkil etilishi, nafaqat, Jizzax viloyati iqtisodiyotining

yuksalishiga, shuningdek, urbanizatsiya va shahar hosil bo'lish jaryonlarining rivojlanib borishiga ham ijobiy ta'sir qilmoqda. Biroq Mirzacho'l iqtisodiy rayonida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan mutanosib holda aholi soni ham ko'payib bormoqda, 2010-2021 yillarda ushbu hududda aholining o'rtacha yillik ko'payishi 1,60 foiz bo'lgan bo'lsa, shundan qishloq joylarida 1,70 foizga, shaharlarida esa 1,55 foizga teng bo'ldi. Shaharlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi kelajak dasturlarini tuzish, rejalashtirish ishlarida ushbu hududlarda yashovchi aholi soni, tarkibi, joylanishi, demografik jarayonlardagi o'zgarishlarning hisobini oldindan bilish muhim hisoblanadi. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shahar va shaharchalar miqyosida 2020-2050 yillarga prognozlar amalga oshirildi. Mazkur prognoz tadqiqotida ekstrapolyatsiya usulidan foydalanildi. Bunda 2010-2020 yillardagi shahar va shaharchalar aholi soni tug'ilish va o'lim dinamikasidagi ko'rsatkichlar manba sifatida olingan.

Prognoz hisob-kitoblariga ko'ra, 2025-yilga kelib shaharlar aholisi soni 564,4 ming kishiga oshib, jami shahar aholi manzilgohlaridagi ulushi esa 49,8 foizga o'sishi kutiladi. Shuningdek, ushbu prognoz yillarida Guliston shahri "o'rta shahar" maqomidan "katta shahar" maqomini olishi mumkin. Gagarin va Do'stlik shaharlarining aholisi soni 20 ming kishidan ortishi munosabati bilan, bu shaharlar, aholi soni jihatidan "kichik shahar" maqomidan "yarim o'rta shahar" maqomiga o'tadi. Mazkur davrda shaharlarda aholi soni 2020-yilga nisbatan 2025-yilda 111,5 foizga o'sadi, o'rtacha yillik ko'payish sur'ati esa 1,80 foizga teng bo'ladi. Shaharlar ichida aholi sonining eng yuqori o'sishi, bu davrda, Guliston (122,4 %), Dashtobod (120,1 %) shaharlarida ro'y beradi, eng past o'sish ko'rsatkichlari esa Sirdaryo (101,9 %) va G'allaorol (104,4 %) shaharlariga to'g'ri kelishi kutilmoqda

Iqtisodiy rayon shaharlarida prognoz davrining 2030-yiliga kelib esa shaharlarida aholi soni 623,6 ming kishiga yetishi ehtimoli mavjud. Jami shahar aholi manzilgohlaridagi ulushi esa 50,4 foizni tashkil qilishi mumkin. Bu davrda Jizzax shahri aholisi soni 200 ming kishilik marradan oshadi. Bundan tashqari, Dashtobod hamda Yangiyer shaharlari aholisi 50 ming kishilik dovondan o'tib, bu shaharlar "yarim o'rta shaharlar" toifasidan "o'rta shahar" toifasiga o'tishi kuzatiladi. Shuningdek, Shirin shahar aholisi soni 20 ming kishidan oshishi bilan, bu shahar, aholi soni jihatidan "kichik shahar" maqomidan, "yarim o'rta shahar" maqomiga o'tadi. Ushbu davrda shaharlarda aholining o'sish sur'ati 2030-yilgi prognozda 108,8 foiz bo'lsa, o'rtacha yillik ko'payish sur'ati esa 1,40 foizga to'g'ri kelmoqda. Bu prognoz yilida eng yuqori o'sish kuzatiladigan shaharlar aholisiga 2025-yildagi kabi Guliston va Dashtobod shaharlarida saqlanib qolib, o'sish sur'ati 130,9 -116,7 foizdan to'g'ri kelishi tadqiqot prognozida kuzatiladi. Shaharlar ichida aholining eng past o'sish ko'rsatkichlari 2025-yilda Sirdaryo va G'allaorol shaharlarida (101,9-104,3 %) ro'y beradi.

2050-yil boshiga borib, shaharlardagi aholi soni 860,5 ming kishini tashkil qiladi, jami

shahar aholi manzilgohlaridagi ulushi esa 52,2 foizga o'sishi kuzatiladi. Bu davrda iqtisodiy rayondagi shaharlar maqomida o'zgarish deyarli kuzatilmaydi. Faqatgina, Guliston shahar aholisi soni 200 ming kishilik dovdan o'tishi mumkin. Bu prognoz davrida shaharlar aholisi sonining o'sish sur'ati o'rtacha 106,1 foizni tashkil qilishi prognoz qilinsa, o'rtacha yillik ko'payish sur'ati esa 1,00 foizdan to'g'ri kelishi ehtimoli bor.

1-jadval

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlari aholisi soni prognozi (2025-2050 yy., ming kishi)

№	Shaharlar	Aholi soni						
		2022-yil	2025-yil	2030-yil	2035-yil	2040-yil	2045-yil	2050-yil
1	Jizzax	186,8	192,4	207,4	222,4	237,4	252,5	267,6
2	Dashtobod	41,1	47,7	55,7	63,7	71,7	79,7	87,7
3	G'allaorol	27,7	27,9	29,1	30,3	31,5	32,7	33,9
4	Paxtakor	28,1	30,0	33,0	36,1	39,0	42,1	45,1
5	Do'stlik	20,6	20,9	21,9	22,8	23,8	24,7	25,7
6	Gagarin	19,2	21,1	23,6	26,2	28,8	31,4	34,0
7	Guliston	93,4	110,6	130,9	151,2	171,5	191,8	212,1
8	Baxt	13,7	14,3	15,1	15,9	16,7	17,5	18,3
9	Sirdaryo	31,3	30,9	31,5	32,1	32,7	33,3	33,9
10	Shirin	19,1	19,6	20,6	21,6	22,6	23,6	24,5
11	Yangiyer	45,2	49,0	54,8	60,5	66,2	72,0	77,7
	Jami	526,2	564,4	623,6	682,8	741,9	801,3	860,5

Jadval ekstrapolyatsiya usuli asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Shaharlarda eng yuqori aholi sonining o'sish ko'rsatkichlari Guliston (110,5 %) va Dashtobod (110,0 %) shaharlariga, eng past o'sish ko'rsatkichi Sirdaryoga (101,8 %) ga to'g'ri kelishi mumkin. Prognoz davrida iqtisodiy rayondagi Jizzax shahri aholisi soni 250 ming kishilik marradan oshishi kutilib, bu esa shaharning "katta shahar" toifasidan "yirik shahar" maqomiga erishishi mumkinligidan darak beradi.

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlarida aholi prognozining 2025-2050 yillardagi natijasi bo'yicha, jami shahar aholisi 2025-yilda o'rtacha yillik ko'payish sur'ati 1,56 foizni, 2030-yilga borib 1,40 foizga kamayib borishi, 2050-yilga borib esa 0,97 foizgacha tushishi prognoz qilindi. Bu ko'rsatkichlar shaharlar bo'yicha farqlanadi, shu boisdan, ularni quyidagicha guruhlash orqali baholash mumkin. Jumladan, birinchi guruhdagi Sirdaryo, Shirin, Do'stlik, G'allaorol shaharlari aholisi sonining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati 0,25 - 0,78 foiz atrofida to'g'ri kelib, bu shaharlarda 2030-yilda, aholi soni 103,1 ming kishi bo'lib, jami shaharlar aholi sonidagi ulushi 16,1 foizni tashkil qiladi. 2050-yilda esa ushbu shaharlarda aholi soni 118,0 ming kishiga ko'payib, aholisi sonining salmog'i 13,7 foizga oshishi kutiladi. Bu guruh shaharlarining ayrimlarida ekologik sharoitga bog'liq holda, aholi soni tashqi migratsiya ta'sirida kamayib boradi. Binobarin, Shirin va Sirdaryo shaharlarida ekologik holatning yomonligi, aholi o'lim

ko'rsatkichlarining boshqa shaharlarga qaraganda, yuqoriligi sababli, aholining o'rtacha yillik ko'payishi biroz pastligicha qoladi.

2-jadval

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlari aholisi sonining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati, prognozi bo'yicha guruhlash (2025-2050 yy, foizda)

Guruhlar soni %	Shaharlar				Aholi soni, ming kishi	
	Soni		Nomi		2030-yil	2050-yil
	2030-yil	2050-yil	2030-yil	2050-yil		
0,25 - 0,78	3	5	Sirdaryo, Do'stlik, G'allaorol	Sirdaryo, Do'stlik, G'allaorol, Baxt, Shirin	<u>82,5</u> 13,2	<u>136,3</u> 15,8
0,78 - 1,56	3	4	Jizzax, Baxt, Shirin	Jizzax, Yangiyer, Paxtakor, Gagarin	<u>243,1</u> 39,1	<u>424,4</u> 49,4
1,56 - 2,34	3	2	Paxtakor, Gagarin, Yangiyer	Dashtobod, Guliston	<u>111,1</u> 17,8	<u>299,8</u> 34,8
2,34 - 3,40	2	-	Dashtobod, Guliston	-	<u>186,6</u> 29,9	-
Jami	11	11	11 ta	11 ta	<u>623,3</u> 100	<u>860,5</u> 100

Izoh* Kasr sur'atida- aholi soni, ming kishi, maxrajida -ulushi, foizda. Jadval muallif tomonidan hisoblangan.

Ikkinchi guruhdagi Jizzax, Paxtakor, Baxt shaharlarida aholining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati 0,78-1,56 foizdan to'g'ri kelgan holda, ushbu shaharlarda tabiiy ko'payish va migratsiya hisobiga aholi soni ko'payib boradi. Mazkur shaharlar aholisi soni 2030-yilda 276,1 ming kishi bo'ladi, shahar aholi manzilgohlari sonidagi ulushi esa 44,2 foizga yetadi. 2050-yilga kelib, bu shaharlarda aholi soni 355,5 ming kishini, shaharlar aholisi sonidagi ulushi esa 41,3 foizni tashkil etadi.

Uchunchi guruhdagi Dashtobod, Yangiyer, Gagarin shaharlarida aholining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati 1,56-2,34 foiz atrofida bo'lib, bu shaharlarda tabiiy ko'payishning yuqoriligi, tashqi migratsiyaning kamligi kabi omillar ta'sirida, ushbu shaharlar aholisi sonining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati yuqoriligi prognoz tadqiqotlarida kuzatildi. Bu guruh shaharlarining aholisi soni 2030-yilda 110,5 ming kishidan bo'lishi hamda shaharlar aholisi sonidagi ulushi 17,7 foizga yetishi kutiladi. 2050-yilga kelib, mazkur shaharlardagi aholi soni 165,4 ming kishiga va shaharlar aholisi sonidagi salmog'i 19,2 foizga yetadi. Dashtobod va Yangiyer shaharlarida esa tabiiy ko'payish asosiy omil bo'lishi bilan birga, tashqi migratsiyaning kamligi muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchi guruhga faqatgina Guliston shahri kiradi, bu shaharda kelajakda aholisi sonining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati 2,36 foizga (2050-y) teng bo'ladi, deb prognoz qilinmoqda. Guliston shahrida aholi sonining o'sishiga avvalo tabiiy ko'payish va qolaversa, qishloq joylaridan

ko'plab kishilarning shaharga ko'chib kelishi hisobiga ortib boradi. Shahar hududining kengayishi tufayli ham shahar aholisi sonining o'rtacha yillik ko'payishi sur'ati yuqori bo'lishini prognoz ishlari ko'rsatmoqda. Guliston shahar aholisi soni 2030-yilda 130,9 ming kishi, 2050-yilda esa 212 ming kishiga yetishi hamda bu shaharning iqtisodiy rayon shaharlari aholisi sonidagi ulushi esa 2030-yilda 20,9 foiz va 2050-yilda 24,6 foizni tashkil qilishi uning muttasil ko'payib borishidan dalolat beradi.

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharchalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun ham aholi soni, tarkibi prognozlari muhim hisoblanadi. 2020-yilda iqtisodiy rayon shahar aholi manzilgohlarining 35,9 foizini 5 ming kishigacha bo'lgan shaharchalar tashkil qilganiga qaramay, ular soni 2030-yilda 25 taga, 2050-yilda 14 tagacha kamayib borishi mumkin. Chunki, shaharchalarda aholi soni ko'payib borishi natijasida, ularning soni qisqarib boradi.

3-jadval

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shahar va shaharchalarining aholi soni prognozi bo'yicha guruhlanishi

Aholi soni, ming kishi.	Shaharlar nomi		Aholi soni, %	
			2030-yil	2050-yil
	2030-yil	2050-yil		
2000-5000	Gulbahor, Tongotar, Baxmal, Qang'liobod, Abdukarim, Navro'z, Chuvulloq, Yom, Sirg'ali, Sovot, Zafarobod, Bekat, Pitalikent, Yangiobod, Do'stlik, Sho'ro'zak, Paxtakon, Xo'lkar, Beshbuloq, Ulug'bek, Oqoltin, Quyosh, Ziyokor, Gulbahor, J.Mamanov	Gulbahor, Baxmal, Abdukarim, Sovot, Zafarobod, Bekat, Do'stlik, Sho'ro'zak, Paxtakon, Ulug'bek, Navro'z, Quyosh, Ziyokor, Beshbuloq	$\frac{104,6}{8,4}$	$\frac{61,1}{3,7}$
5000-10000	Oqtosh, Alamli, Mo'g'ol, Novqa, Qang'li, Sayxun, Uchquloq, Qo'ytosh, Gandumtosh, Malik Marjonbuloq, Sharq yulduzi, Pishag'ar, Nurafshon, Paxtazor, Mirzadala, Markaz, Navro'z, Andijon, Xalqako'l	Tongotar, Alamli, Oqtosh, Qang'liobod, Marjonbuloq, Yom, Chuvulloq, Sirg'ali, Gandumtosh, Markaz Pitalikent, Sharq yulduzi, Paxtazor, Xo'lkar, Mirzadala, Nurafshon, Uchquloq, Yangiobod, Oqoltin, Andijon, Sayxun, Xalqako'l, Malik, J.Mamanov, Gulbahor	$\frac{135,6}{10,9}$	$\frac{174,7}{10,6}$
10000-20000	Lalmikor, G'oliblar, Usmat, Uchtepa, Baxt, Sohil, Qorayantoq, Bog'don, Mulkanlik, Yorqin, Jizzaxlik, Zarbdor, Bo'ston, Fayzobod, Gulzor, Farg'ona, Boyovut, Dehqonobod	Mo'g'ol, Novqa, Qo'ytosh, Qang'li, Lalmikor, Baxt, Sohil, Gulzor, G'oliblar, Yorqin, Qorayantoq, Pishag'ar, Navro'z, Mulkanlik, Bog'don, Bo'ston, Farg'ona, Dehqonobod	$\frac{258,9}{20,9}$	$\frac{250,8}{15,1}$
20000-50000	Toqchilik, Zomin, Sardoba, Paxtaobod, Xovos, G'allaorol, Paxtakor, Do'stlik, Gagarin, Sirdaryo, Shirin	Toqchilik, Uchtepa, Jizzaxlik, Boyovut, Zarbdor, Fayzobod, Sardoba, Xovos, Paxtaobod, Shirin, Do'stlik, Sirdaryo, G'allaorol, Gagarin, Paxtakor, Usmat	$\frac{295,0}{23,7}$	$\frac{464,2}{28,1}$
50000-100000	Dashtobod, Yangiyer	Dashtobod, Yangiyer, Zomin	$\frac{110,5}{8,9}$	$\frac{219,7}{13,3}$

1000002 00000	Guliston	-	$\frac{130,9}{10,5}$	-
2000003 00000	Jizzax	Jizzax, Guliston	$\frac{207,4}{16,7}$	$\frac{479,7}{29,2}$
Jami	78	78	$\frac{1235,8}{100}$	$\frac{1646,8}{100}$

Izoh* Kasr sur'atida- aholi soni, ming kishi, maxrajida -ulushi, foizda.

Jadval muallif tomonidan hisoblangan.

Iqtisodiy rayonda aholi soni 5-10 ming kishilik shaharchalar soni 2030-yilda 21 tani tashkil qilib, ularda 135,6 ming kishi istiqomat qilishi prognoz qilinadi. Bu shaharchalar Jizzax va Sirdaryo viloyatlariga taqsimlanganda, Jizzax viloyatiga 16 ta shaharcha, Sirdaryo viloyatiga 5 ta shaharcha to'g'ri kelmoqda. Jizzax viloyati Zafarobod tumanidagi Yorqin shaharchasi hamda Paxtakor tumanidagi Gulzor shaharchalarida aholi soni 10 ming kishidan oshishi kutilmoqda. Shuning uchun bu shaharchalarda aholi soni 10-20 ming kishilik shaharchalar toifasiga o'tishini prognoz natijalari ko'rsatmoqda. Shuningdek, iqtisodiy rayonda 2030-yil prognoz davrida, 10-20 ming kishilik shaharchalar soni 18 ta bo'lishi kutilib, viloyatlar kesimida taqsimlanadigan bo'lsa, bu Jizzax viloyatiga 13 ta shaharcha va Sirdaryo viloyatiga 5 ta shaharcha to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy rayondagi 20-30 ming kishilik shaharchalar tarkibida 2030-yilga borib, Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumanidagi Toqchilik shaharchasi bo'lishi ehtimoli mavjud. Zomin shaharchasi 2030-yilga borib aholisi soni 36,2 ming kishini tashkil qiladi va shahar maqomini oladi. 2030-yilga borib, shaharchalar aholisi sonining o'sishi sur'ati o'rtacha 107,1 foizni tashkil qilishi prognoz qilinsa, o'rtacha yillik ko'payish su'rati 1,15 foizga to'g'ri keladi.

Jizzax viloyati shaharchalarida aholining o'sish sur'ati o'rtacha 108,4 foiz, o'rtacha yillik ko'payish sur'ati 1,35 foiz. Sirdaryo viloyati shaharchalarida esa 105,8-0,95 foizga teng bo'lishi kutilmoqda. Shaharchalarda eng yuqori o'sish ko'rsatkichlari 2030-yilda Novqa (114,5 %), Chuvulloq (115,3 %), Yangiobod (115,3 %), Zomin (114,5 %), Sardoba (113,4 %) shaharchalarida qayd etilsa, eng past o'sish ko'rsatkichlari esa Sayxun (100,0 %), Zafarobod (102,1 %), Tongotar (102,1 %) hamda Xo'lkar shaharchalariga (102,2%) to'g'ri keladi. Mirzacho'l iqtisodiy rayonida 2050-yilda aholi soni 5 ming kishigacha bo'lgan shaharchalar soni 14 taga yetishi prognoz qilinadi. 2030-yil prognoziga nisbatan 11 ta shaharchaga kamayganligi kutilib, mazkur shaharchalarda jami aholi soni 61,1 ming kishi bo'lishi mumkin. Jizzax viloyatida mazkur shaharchalar soni 5 tani, Sirdaryo viloyatida esa bunday shaharchalar soni 9 tani tashkil qilishi aniqlandi.

2050-yilda aholi soni 5-10 ming kishilik shaharchalar soni 20 ta, bu shaharchalardagi aholi soni esa 135,6 ming kishi bo'lishini hisobga oladigan bo'lsak, shaharchalar sonida ko'payish ro'y beradi. Viloyatlar kesimida taqsimlanganda, Jizzax viloyatiga ushbu shaharchalardan 15 ta, Sirdaryo viloyatiga esa 5 ta shaharcha to'g'ri keladi. Tadqiqot natijasiga ko'ra, aholi soni 10-20 ming kishilik shaharchalar tarkibi prognoz davrida 18 ta bo'lishi ehtimoli bo'lsa, bu

shaharchalarda aholi soni 250,8 ming kishigacha yetishi prognoz qilinmoqda. 2050-yilda Jizzax viloyati Baxmal tumani Mo'g'ol va Novqa shaharchalari aholisi soni 10 ming kishidan oshadi.

Iqtisodiy rayonda aholi soni 20-50 ming kishilik "yarim o'rta" shaharchalar soni 2050-yilda, 16 ta shaharchani tashkil qilishi mumkin. Mazkur shaharchalar tarkibiga Jizzax viloyati Baxmal tumani markazi Usmat shaharchasi hamda Zarbdor tumanidagi Fayzobod shaharchalari kiradi, ularda aholisi soni ko'payib, mazkur shaharchalar tarkibiga qo'shilishi mumkin. Ushbu shaharchalarda jami aholi soni 464,2 ming kishiga yetadi. Jizzax viloyatida bu shaharchalar soni 10 ta bo'lsa, Sirdaryo viloyatida 6 tadan to'g'ri kelishi aniqlandi. Zomin shahrining aholisi soni bu vaqtda 50 ming kishidan oshib "o'rta shahar" toifasiga o'tadi.

2050-yilgi prognoz natijalariga ko'ra, shaharchalar aholisi o'rtacha yillik ko'payish sur'ati 0,85 foizdan to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda. Xususan, Jizzax viloyati shaharchalarida o'rtacha yillik ko'payish sur'ati 1,10 foizga Sirdaryo viloyati shaharchalari aholisi sonining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati esa 0,75 foizdan to'g'ri kelishi prognoz qilinmoqda.

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharchalari aholisi sonining eng yuqori o'sish ko'rsatkichlari bo'yicha 2050-yilda Jizzax viloyati shaharchalaridan Chuvulloq va Yangiobod shaharchalari yetakchilik qilsa eng past o'sish ko'rsatkichlari avvalgi yillardagi kabi Zafarobod, Sayxun va Xalqako'l shaharchalariga (100,0-101,8 foiz atrofida) to'g'ri kelishini prognoz natijalari ko'rsatmoqda. Mirzacho'l iqtisodiy rayonining ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishida shaharchalarning ijtimoiy-iqtisodiy holati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi, mintaqa aholisining 52,5 foizi shaharchalarda istiqomat qiladi va kelajakda aholi sonining o'sib borishi bilan ular shahar maqomini oladi. 2025-yilda shaharchalar aholisi sonining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati 1,24 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2050-yilga borib, u, 0,87 foizdan bo'lganligi, aholi ko'payish sur'atining yildan-yilga pasayib borayotganligini ko'rsatmoqda.

4-jadval

**Jizzax viloyati shaharchalari aholisi o'rtacha yillik ko'payish sur'ati prognozi
bo'yicha guruhlanishi (2025-2050 yy) foizda**

Guruhlar soni %	Shaharchalar		Aholi soni ming kishi	
	Soni	Nomi	2030 y	2050 y
0,03 - 0,69%	7	G'oliblar, Tongotar, Baxmal, Qo'ytosh, Mulkanlik, Qorayantoq, Zafarobod	<u>61,8</u> 15,3	<u>69,5</u> 13,1
0,69 - 1,38%	16	Usmat, Oqtosh, Marjonbuloq, Lalmikor, Abdulkarim, Qang'li, Jizzaxlik, Yom, Zarbdor, Fayzobod, Yorqin, Pitalikent, Nurafshon, Gulzor, Bog'don, Sovot	<u>158,8</u> 39,5	<u>203,6</u> 38,6
1,38 - 2,07%	17	Gulbahor, Mo'g'ol, Novqa, Alamli, Qang'liobod, Gandumtosh, Toqchilik, Uchtepa, Navro'z, Bo'ston, Sirg'ali, Zomin, Pishag'ar, Sharq yulduzi, Paxtazor,	<u>172,4</u> 42,8	<u>239,7</u> 45,7

		Mirzadala, Uchquloch		
2,07 - 2,80%	2	Chuvulloq, Yangiobod	$\frac{9}{2,2}$	$\frac{14,0}{2,6}$

Izoh* Kasr sur'atida- aholi soni, ming kishi, maxrajida -ulushi, foizda.

Jadval muallif tomonidan hisoblangan.

Jizzax viloyatida 2025-yilda shaharchalar aholisi sonining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati 1,49 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2050-yilga borib 0,98 foizga teng bo'ladi. Mazkur variantda aholi soni o'sishi bo'yicha shaharchalar bir-biridan quyidagicha farqlanadi:

Jizzax viloyatida birinchi guruh shaharchalari soni 7 ta bo'lib, bularga G'oliblar, Tongotar, Baxmal, Qo'ytoosh, Mulkanlik, Qorayantoq, Zafarobod shaharchalari kiradi, bu shaharchalar aholisining yillik o'rtacha ko'payish sur'ati 0,03-0,69 foiz atrofida to'g'ri kelib, ushbu shaharchalar, aholi sonida tabiiy ko'payish pastligi va tashqi migratsiya ta'siri, aholisining sust ko'payishi xosdir. Bu shaharchalarda aholi soni 2030-yilda 61,8 ming kishiga yetsa, Jizzax viloyati shaharchalari aholisining ulushi 15,3 foizni tashkil qiladi. 2050-yilga kelib, 69,5 ming kishi va 13,1 foizini tashkil qiladi.

Ikkinchi guruhga tegishli bo'lgan Usmat, Oqtosh, Marjonbuloq, Lalmikor, Abdulkarim, Qang'li, Jizzaxlik, Yom, Zarbdor, Fayzobod, Yorqin, Pistalikent, Nurafshon, Gulzor, Bog'don, Sovot shaharchalarida aholi soni 2030-yilda 158,8 ming kishiga yetishi prognoz qilinmoqda. Mazkur shaharchalar Jizzax viloyati shaharchalari aholisining 39,5 foizini, 2050-yilga kelib 203,6 ming kishi va 38,6 foizini tashkil qilishi mumkin.

Uchinchi guruhdagi shaharchalar eng ko'p bo'lib, ularning soni Jizzax viloyatida 17 tani tashkil qiladi. Bu shaharchalarga Gulbahor, Mo'g'ol, Novqa, Alamli, Qang'liobod, Gandumtosh, Toqchilik, Uchtepa, Navro'z, Bo'ston, Sirg'ali, Zomin, Pishag'ar, Sharq yulduzi, Paxtazor, Mirzadala, Uchquloch shaharchalari kiradi. Mazkur shaharchalarda aholining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati 1,38-2,07 foiz atrofidadir. Ushbu shaharchalarda aholi tabiiy ko'payishining yuqoriligi, tashqi migratsiyaning kamligi kabi omillar ta'sirida, aholisining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati yuqoriligi prognoz tadqiqotida kuzatildi. Qayd etilayotgan shaharchalarda aholi soni 2030-yilda 172,4 ming kishi bo'lishi va Jizzax viloyati shaharchalari aholisining 42,8 foiziga teng bo'lishi kutilmoqda. 2050-yilga kelib, bu shaharchalarda aholi soni 239,7 ming kishigacha ko'paygan holda, urbanizatsiya darajasi 45,7 foizdan iborat bo'ladi.

To'rtinchi guruhga faqatgina Chuvulloq, Yangiobod shaharchalari kiradi, bu shaharchalarda kelajakda aholisining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati 2,80 foiz atrofida saqlanadi. Mirzacho'l iqtisodiy rayonidagi shahar va shaharchalarda eng yuqori aholi ko'payishining yillik o'rtacha darajasi aynan shu shaharchalarda kuzatiladi. Bu shaharchalarda aholi soni 2030-yilda 9,0 ming kishiga yetib, Jizzax viloyati shaharchalari aholisining 2,2 foizini tashkil qiladi. 2050-yilga kelib

esa, ushbu shaharchalarda aholi soni 14,0 ming kishiga yetib, Jizzax viloyatidagi jami shaharchalar aholisidagi ulushi 2,6 foizini tashkil qiladi.

Sirdaryo viloyatida 2025-yilda shaharchalar aholisining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati 1,00 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2050-yilga borib o'rtacha yillik ko'payishi sur'ati 0,77 foiz bo'lishi kutilmoqda. Mazkur prognozda aholi soni o'sishi bo'yicha shaharchalar bir-biridan quyidagicha farqlanadi:

5-jadval

Sirdaryo viloyati shaharchalari aholisi sonining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati bo'yicha guruhlanishi (2025-2050 yy., foizda)

Guruhlar soni %	Shaharchalar		Aholi soni, ming kishi	
	Soni	Nomi	2030 y	2050 y
0,20 - 0,40%	3	Sayxun, Xalqako'l, Xovos	<u>40,6</u> 19,3	<u>43,9</u> 16,9
0,40 - 0,80%	5	Markaz, Do'stlik, Xo'lkar, Navro'z, Quyosh	<u>19,9</u> 9,5	<u>23,2</u> 8,9
0,80 - 1,20%	15	Farg'ona, Andijon, Boyovut, Bekat, Sohil, Sho'ro'zak, Paxtakon, Ziyokor, Dehqonobod, Beshbuloq, Ulug'bek, Oqoltin, Malik, J.Mamanov, Gulbahor	<u>104,7</u> 49,8	<u>128,1</u> 49,4
1,20 - 1,81%	2	Sardoba, Paxtaobod	<u>45,0</u> 21,4	<u>64,3</u> 24,8
Jami	25		<u>210,2</u> 100	<u>259,5</u> 100

Izoh* Kasr sur'atida- aholi soni, ming kishi, maxrajida -ulushi, foizda.

Jadval muallif tomonidan hisoblangan.

Sirdaryo viloyatida yuqoridagi jadval tahlilidan ko'rish mumkinki, aholisi sonining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati bo'yicha eng past ko'rinishga ega bo'lgan shaharchalar Sayxun, Xalqako'l, Xovos bo'lib, bu shaharchalar aholisining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati 0,20 - 0,40 foiz atrofida, bu shaharchalarda tabiiy ko'payishining pastligi va tashqi migratsiya ta'sirida, aholi sust ko'payishi kuzatiladi. Prognozda aholi sonining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati bo'yicha (0,40-0,80) ikkinchi guruh shaharchalariga Markaz, Do'stlik, Xo'lkar, Navro'z, Quyosh kiradi. Prognoz yillari ushbu shaharchalarda aholi soni 2030-yilda 19,9 ming kishiga yetib, viloyat shaharchalari aholisidagi ulushi 9,4 foizini tashkil qiladi. 2050-yilga kelib esa bu shaharchalarda aholi soni 23,2 ming kishiga yetib viloyatdagi jami shaharchalar aholisining 8,9 foizini tashkil qiladi.

Aholi sonining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati (0,80-1,20 %) bo'yicha uchinchi guruhga tegishli bo'lgan shaharchalar soni eng ko'p (15 ta) bo'lib, bularga Farg'ona, Andijon, Boyovut, Bekat, Sohil, Sho'ro'zak, Paxtakon, Ziyokor, Dehqonobod, Beshbuloq, Ulug'bek, Oqoltin, Malik, J.Mamanov, Gulbahor shaharchalari kiradi. Mazkur shaharchalarda tabiiy ko'payishning yuqoriligi, tashqi migratsiyaning kamligi ta'sirida, shaharchalar aholisi sonining o'rtacha yillik

ko'payish sur'ati yuqoriligini ta'minlamoqda. Bu shaharchalar aholisi Sirdaryo viloyati shaharchalari aholisining 49,8 foizini, 2050-yilga kelib esa shaharchalarda aholi soni 128,1 ming kishiga va 16,9 foizni tashkil etadi. Prognozda aholi sonining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati bo'yicha eng yuqori Sardoba, Paxtaobod shaharchalari bo'lib, bu shaharchalarda istiqbolda aholisi sonining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati 1,20-1,81 foizga to'g'ri kelishi mumkin. Bu shaharchalarda aholi soni 2030-yilda 45,0 ming kishi, 2050-yilda 64,3 ming kishiga, yetishi prognoz natijalari ko'rsatmoqda.

Mirzacho'l iqtisodiy rayonida shahar aholi manzilgohlarida yashovchi aholi soni prognoz hisob-kitoblarga ko'ra, 2020-yilda 1,030 ming kishi bo'lgan bo'lsa, 2050-yilga borib 1,646 ming kishiga yetishligini ko'rsatadi. Bunda urbanizatsiya darajasi 2020-yilda 47,3 foiz bo'lgan bo'lsa, 2050-yilga borib 47,9 foizgacha ko'tariladi. Bu davrda iqtisodiy rayon shahar aholi manzilgohlarida aholining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati 1,04 foizga teng bo'ladi. Bulardan Jizzax viloyatida 2020-yilda urbanizatsiya darajasi 46,9 foiz bo'lgan bo'lsa, 2050-yilga borib, esa 46,6 foizga, Sirdaryo viloyatida esa 2020-yilda urbanizatsiya darajasi 45,1 foizdan, 2050-yilda 50,5 foizga ko'tariladi.

Yangi shaharchalarning ko'pchiligida ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanmaganligi va qishloqcha hayot tarzining mavjudligi, ular aholi soni o'sishining yuqoriligini ta'minlaydi. Mirzacho'l iqtisodiy rayonining yaqin kelajakda har tomonlama faol shaharlari guruhiga ko'proq, Jizzax viloyatining Jizzax, Dashtobod, G'allaorol shaharlari kiradi. Sababi, bu shaharlar viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy qudratini yuksaltiruvchi markazlari hisoblanadi. Ayniqsa, Jizzax shahri (186,8 ming kishi 2022-y.) kelajakda, uning o'zi va atrofida paydo bo'ladigan aglomeratsiyasi iqtisodiy rayonning asosiy o'sish qutbi bo'lib qoladi.

Ikkinchi darajadagi o'sish markazi esa Dashtobod (41,1 ming kishi 2022-y.) shahri bo'lishi ko'zda tutilmoqda. Jizzax va Dashtobod nafaqat, viloyatning, balki iqtisodiy rayonning ham yetakchi shaharlaridandir. Jumladan, viloyat darajasida G'allaorol (27,7 ming kishi 2022-y.), Paxtakor (28,1 ming kishi 2022-y.), yaqin kelajakda Zomin (28,8 ming kishi 2022-y.), shaharchasi shahar toifasiga o'tib, kelajakda turistik shaharga aylanishi ehtimoli yuqori.

Sirdaryo viloyatining o'sish markazlari sifatida, birinchi shahar Guliston (91,2 ming kishi 2022-y.) va keyingisi Yangiyer (45,2 ming kishi 2022-y.)ni keltirish o'rinli. Ammo ushbu shaharlarning kelgusidagi rivojlanishiga shamol va sho'rlanish kabi tabiiy geografik omillar to'sqinlik qilishi ehtimolini unutmaslik lozim. Bundan tashqari, viloyatda o'sish imkoniyatlari mavjud bo'lgan Sirdaryo (31,3 ming kishi 2022-y.) va Shirin (19,4 ming kishi 2022-y.) shaharlari ham joylashganligini keltirish o'rinli. Mirzacho'l iqtisodiy rayonida ushbu shaharlarning rivojlanib borishi, nafaqat, shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatida, balki shahar atrofidagi shaharchalarning ham har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shunday qilib,

kelajakda Mirzacho‘l iqtisodiy rayonidagi mayda shaharchalar soni tobora qisqarib boradi.

Iqtisodiy rayon shahar va shaharchalarining aholi soni prognoz natijalaridan, yaqin kelajakda urbanistik tarkibi rivojlanishi, quyi pog‘onadagi shaharlar aholisining ko‘payishini, yirik shahar soni Guliston shahri bilan bittaga ko‘payishini, o‘rta shaharlar sonida ham Dashtobod va Yangiyer shaharlari qo‘shilishini va shaharlar irarxiyasining rivojlanishi ro‘y berishini kutish mumkin. Bu esa mazkur hududlar urbanizatsiya darajasi oshishiga, aholining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi ortib borishiga xizmat qiladi.

Iqtisodiy rayon shaharchalaridagi Usmat, Novqa, Alamli, Marjonbuloq, Gandumtosh, Zarbdor, Fayzobod, Zomin, Boyovut, Sayxun, Dehqonobod, Ziyokor shaharchalarida aholi ko‘payishida tug‘ilishning yuqorligi (30-39,9%) shuningdek, Baxmal, Pishag‘ar, Zafarobod, Yangiobod, Navro‘z shaharchalarida juda yuqoriligi (40% yuqori) kuzatiladi. Aholi tarkibida tug‘ilishning yuqori ko‘rinishi kelajakda bu shaharchalarda uy-joy muammolari, aholi tarkibida ishsizlikning ko‘payishi, unumdor qishloq xo‘jalik yerlarining uy-joy qurish maqsadida qisqarishi kabi muammolarining paydo bo‘lishiga jiddiy ahamiyat berish talab etiladi.

XULOSA

Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni urbanistik tarkibida o‘rta bo‘g‘in shaharlari sust rivojlangan. Prognoz natijalari ham ushbu toifa shaharlar sinfining kuchayishini ko‘rsatmayapti. Binobarin, “yarim o‘rta” shaharlar hisobidan, masalan G‘allaorol, Gagarin, Do‘stlik, Sirdaryo, Zomin, Dashtobod, Yangiyer shaharlarini viloyatlar darajasidagi o‘sish qutb va markazlari sifatida jadal rivojlanishini ta‘minlash maqsadga muvofiq. Bunda ushbu shaharlarning tabiiy sharoit va resurslar bilan ta‘minlanganligi va qulay transport geografik o‘ringa ega ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 10 январдаги “Урбанизация жараёнларини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 5623-сон Фармони. <https://lex.uz/docs/4154818>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони (<https://lex.uz/docs/5841063>)
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 19 январдаги “Жиззах вилояти ҳудудларини ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш, аҳоли турмуш даражасини янада яхшилашга доир қўшимча чора-тадбирлар дастури тўғрисида”ги 19-сонли Қарори.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2009 йил 13 мартдаги “Ўзбекистон Республикаси аҳоли пунктларининг маъмурий-худудий тузилишини

такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 68-сон Қарори.

<https://lex.uz/docs/1486944>

5. Зокиров С.С. Ўзбекистонда урбанизация жараёнларини тартибга солиш тизимини такомиллаштириш. - Тошкент: Тафаккур, 2020. - 367 б.

6. Мавлонов А.М. Чўл шароитида шаҳарларнинг шаклланиши ва ривожланиши муаммолари (Бухоро вилояти мисолида). География фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент: 2010. – 184 б.

7. Таштаева С.К. Ўзбекистон шаҳар агломерацияларининг шаклланиши ва ривожланиш хусусиятлари. (Тошкент агломерацияси мисолида) География фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати.-Т.,2011.-161 б.

8. Эгамбердиева М.М. Бозор иқтисодиёти шароитида шаҳарлар ривожланишининг минтақавий муаммолари. География фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. -Т.: 2008 й.71-б

9. www.stat.uz